

Davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish TARTIBI

1. Konstitutsiyaviy sudga quyidagi davlat organlari va mansabdor shaxslar murojaat qilish huquqiga ega:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman);
 - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘rinbosari – Bola huquqlari bo‘yicha vakil;
 - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi;
 - Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida to‘rtadan bir qismidan iborat deputatlar guruhi;
 - Senat a’zolari umumiy sonining kamida to‘rtadan bir qismidan iborat senatorlar guruhi;
 - O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
 - O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori;
 - O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi;
 - Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy markazi;
 - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil.

2. Davlat organlari va mansabdor shaxslar Konstitutsiyaviy sudga quyidagi masalalar bo‘yicha murojaat qilishi mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to‘g‘risida;
- Oliy Majlis palatalari qarorlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to‘g‘risida;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qaror va farmoyishlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to‘g‘risida;
- Hukumat qarorlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to‘g‘risida;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to‘g‘risida;

- O‘zbekistonning davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to‘g‘risida;
- Prezident tomonidan imzolanganiga qadar – O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to‘g‘risida;
- ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari Prezident tomonidan imzolanganiga qadar – xalqaro shartnomalarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to‘g‘risida;
- referendumga chiqarilayotgan masalalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa berish to‘g‘risida;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa berish to‘g‘risida;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa berish to‘g‘risida;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko‘rib chiqish to‘g‘risida;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh berish to‘g‘risida.

3. Normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to‘g‘risidagi murojaatda quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi shart:

- Konstitutsiyaga muvofiqligi tekshirilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat nomi, raqami, qabul qilingan sanasi, u e’lon qilingan manba ko‘rsatiladi. Masalan, *O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 2 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlashga qaratilgan o‘zgartishlar va qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-705-soni Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021 yil, № 8, 797-modda; LexUz – milliy bazasidagi manzili <https://lex.uz/docs/5545463>);*
- murojaatni Konstitutsiyaviy sudda ko‘rib chiqishning huquqiy asoslari. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunning tegishli normalariga havola qilingan holda ko‘rsatiladi;
- murojaatda qo‘yilgan masala yuzasidan murojaat qiluvchining nuqtai nazari asoslantirilgan bo‘lishi kerak;
- murojaatda qo‘yilgan masalani O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli normalariga havola qilgan holda huquqiy asoslantirish lozim;

– murojaat qiluvchining nomi, joylashgan yeri, pochta manzili, aloqa vositalari ko‘rsatiladi.

4. Murojaatga ilova qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar:

- ilova qilinayotgan hujjatlarning ketma-ketlikda raqamlangan ro‘yxati;
- Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida to‘rtdan bir qismidan iborat deputatlar guruhi Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilganda ularning o‘tkazgan majlisi qarori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlar guruhi yig‘ilishi qarori);
- deputatlar guruhi ro‘yxati;
- Senat a’zolari umumiy sonining kamida to‘rtdan bir qismidan iborat senatorlar guruhi Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilganda ularning o‘tkazgan majlisi qarori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a’zolari senatorlar guruhi yig‘ilishi qarori);
- senatorlar guruhi ro‘yxati;
- tekshirilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatning hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normasining matni. *Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 29-bob, 386-modda, 2-qism; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Birinchi bo‘lim. Asosiy prinsiplar, I bob, 5-modda;*
- sud majlisiga chaqirilishi taklif qilinayotgan ekspertlar va mutaxascislarning ro‘yxati.

Murojaatga boshqa hujjatlar hamda materiallar ilova qilinishi mumkin.

5. Konstitutsiya va qonun normalarini rasmiy sharhlash to‘g‘risidagi murojaatlarga qo‘yiladigan talablar:

- murojaatda Konstitutsiyada va qonunda ularning amaliyotda noto‘g‘ri yoki ziddiyatli tarzda qo‘llanilishiga olib kelgan noaniqliklar mavjudligiga doir vajlar hamda dalillar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak;
- Konstitutsiya va qonun normalarining amaliyotda noto‘g‘ri yoki ziddiyatli tarzda qo‘llanilishini tasdiqllovchi tegishli ma‘lumotlar (statistik ma‘lumotlar, sud hujjatlari, qonun hujjatlarini qo‘llash amaliyotini umumlashtirish natijalari va boshqa tahliliy materiallar) murojaatga ilova qilingan holda taqdim etiladi.
- murojaatda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining va qonuning sharh berilishi lozim bo‘lgan normalari ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. *Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Birinchi bo‘lim. Asosiy prinsiplar, III bob, 15-modda, 5-qism; LexUz – milliy bazasidagi manzili <https://lex.uz/docs/6445145>; O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentabrda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi 938-XII-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 yil, 12-son, 269-modda; LexUz – milliy bazasidagi manzili <https://lex.uz/docs/112314>;*

– murojaatga sharhlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonuni normasining matni ilova qilinadi. *Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Birinchi bo‘lim. Asosiy prinsiplar, III bob, 15-modda, 5-qism: “Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdar shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar”; O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 19-modda, 6-qism: “Fuqaro tug‘ilgan vaqtida olgan ismini, shuningdek o‘zgartirilgan ismini fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish uchun belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazishi kerak”.*

!!! Konstitutsiyaviy sud qonunosti hujjatlari normalariga rasmiy sharh bermaydi.

Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, hukumat qarorlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari qarorlariga rasmiy sharhni ularni qabul qilgan organlar beradi.

6. Murojaat mansabdar shaxslarning yoki davlat organlarining rasmiy hujjatlar blankalarida rasmiylashtiriladi va birinchi rahbarning imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi shart.

7. Konstitutsiyaviy sudga murojaat yozma yoki elektron shaklda yuboriladi.

Yozma murojaatlar pochta aloqa vositasi orqali Konstitutsiyaviy sudning quyidagi yuridik manziliga yuboriladi: Toshkent shahri, 100163, Islom Karimov ko‘chasi, 43-uy, 1-korpus.

Elektron murojaatda “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq elektron hujjatning quyidagi majburiy rekvizitlari ko‘rsatilishi lozim:

- elektron raqamli imzo;
- elektron hujjatni jo‘natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki elektron hujjatni jo‘natuvchi fuqaroning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- elektron hujjatni jo‘natuvchining pochta va elektron manzili;
- hujjat yaratilgan sana.

Elektron murojaatlar quyidagi manzilga yuboriladi: info@ksu.uz.

8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining telefon raqami: +99871 239-80-20.

Ish kunlari: dushanba – juma.

Ish vaqt: soat 9.00 – 18.00 (tushlik 13.00 – 14.00).

